

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 3, 31 Март

UO‘T.634.11.

## **Olma daraxtini o‘sovchi novdalarining miqdori va uzunligining yoshartiruvchi va me‘yorlashtiruvchi kesish usuliga bog‘liqligi**

BuxDU Agronomiya va tuproqshunoslik kafedrasini professori

**Yunusov Rustam**

BuxDU Sabzavotchilik, polizchilik va kartoshkachilik ta‘lim yo‘nalishi 3-bosqich talabalari **Qadamova Muxlisa Xudoyshukur qizi, Yuldoshova Iqboljon**

**Ikrom qizi**

**Annatsiya:** Maqolada intensiv olmazlarda yoshartiruvchi va meyorlashtiruvchi kesishni olma daraxtini o‘sovchi novdalarining miqdori va uzunligining yoshartiruvchi va me‘yorlashtiruvchi kesish usuliga bog‘liqligi o‘rganilgan. Tajriba natijalarda intensiv olma daraxtini o‘sovchi novdalarining miqdori va uzunligini eng maqbul ko‘rsatkichlari yoshartiruvchi va me‘yorlashtiruvchi kesish usuli o‘tkazilganda qo‘lga kiritilgan.

**Kalit so‘zlar:** Intensiv bog‘, 3 xil rayonlashtirilgan olma navi, o‘rta sekin o‘sovchi payvandtag, novdani miqdori va uzunligi, yoshartiruvchi va me‘yorlashtiruvchi kesish usuli.

**Аннотация:** в статье рассматривается зависимость омолаживающей и нормализующей обрезки от количества и длины ветвей яблони от способа омолаживающей и нормализующей обрезки на интенсивных полях. В результате эксперимента получены оптимальные параметры количества и длины растущих ветвей интенсивной яблони при проведении метода омолаживающей и стандартизирующей обрезки.

**Ключевые слова:** интенсивный сад, 3 разных районированных сорта яблони, средне-медленнорастущий привой, количество и длина ветвей, омолаживающий и нормализующий метод обрезки.

## **Kirish**

Kesish tadbiri bu meva daraxtlarining o‘shishi va rivojlanishiga ko‘proq ta‘sir etuvchi agrotexnik usullaridan biri hisoblanadi.

Intensiv mevali bog‘larning rivojlanishi va doimiy ravishda ulardan muttasil mo‘l va sifatli hosil yetishtirish uchun quyidagi talablar amalga oshirilishi nazarda tutiladi. Olmaning yuqori, mahsuldor payvandtaglarga ulangan navlarning kombnasiyalaridan foydalanish, kamgabaritli olma daraxti tanasini shakllantirish,

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 3, 31 Март

yuqori agrotexnik tadbirlarni qo'llash fonida gektariga nihollarni zich joylashtirish hamda kesish usuli va darajalariga qat'iyon amal qilish lozimligi uqtirladi. To'g'ri va o'z muddatida qilib bajarilgan kesish usullari daraxtning shakllanishini tezlashtiradi, ularning erta hosilga kirishini ta'minlab, yashash davrida mutassil mo'l hosil olish imkoniyatini yaratish bilan birga, mevaning sifatini tubdan yaxshilaydi.

Boshqa ko'p yillik daraxtlar kabi olma daraxtida ham, uning o'sish jarayonida qutblanish mavjudligi ma'lum: o'sish nuqtasining eng yuqori kurtigidan bir yillik shoxlarda tik o'suvchi eng kuchli novda hosil qiladi. Pastda joylashgan ikki yon kurtaklaridan, bir yoki bir nechta kuchsiz o'suvchi novdalar hosil qilib, ularning o'sish qobiliyatini kuchsizlantiradi[1,2].

Bir yillik o'suvchi novdalarda qisqartirishning o'simliklarga nisbatan reaksiyasining o'zgarishini navlarning biologik xususiyatlariga, qisqartirilayotgan novdalarning uzunligi va yo'g'onligiga, daraxt tanasida shox-shabbaning qanday joylashganligiga, turli xil qisqartirish darajasiga qarab aniqlanadi. O'suvchi novdalarni qisqartirish qancha kuchli bo'lsa, shuncha tiklanadigan shoxlar hosil bo'lishining faolligi yuqori bo'ladi va qisqartirilgan o'suvchi novdalarda kesish joyidan chetga ketishining burchaklari kam bo'ladi[3].

Tajriba uslubiyoti: Tajriba o'tkazilgan yillarda o'rganilgan 3 xil rayonlashtirilgan navlar bo'yicha umumqabul qilingan uslubiy qo'llanmalardan hamda olma daraxtini parvarishlash, yoshartiruvchi va me'yorlashtiruvchi kesish usullari, fitometrik ko'rsatkichlarini VNIIS (1982) yilda ishlab chiqarilgan uslubiyotidan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari. Tajriba 2021-2023 yillar davomida Buxoro tumanidagi "Hayot Amin bog'i" fermer xo'jaligida 3 xil rayonlashtirilgan olma navlari Golden Delishes, Renet Simirenko va Pervents Samarkanda navlari bog'ga o'tkazish tartibi 6x4 m, payvandtag sekin o'rta o'suvchi MM-106 payvandtagi, tuprog'i qadimdan sug'oriladigan o'tloqi olma bog'ida o'tkazildi.

Bog'dorchilik bilan shug'ullanadigan ko'pgina ilg'or mutaxassis va tadqiqotchilarning fikrlariga ko'ra, kesish usuli va darajasini qo'llash orqali daraxtlarga shakl berilib, uning tanasi baquvvat va mustahkam skeletga ega bo'ladi. Shu tadbir qo'llanilishi tufayli, daraxt tanasida o'suv va hosil shoxlarining barobar joylashishi ta'minlanib, sug'orish va oziqlantirish tartibini yaxshilaydi, ularning o'sish, rivojlanishi va meva shakllanishiga hamda meva berishiga qulay sharoit yaratilib, o'suv shoxlari va mevalarning rivojlanishini kuchaytiradi, hosil sifati

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 3, 31 Март

keskin yaxshilanadi, zarakunandalarga, kasalliklarga va qishga chidamliligini oshiradi[4,5,6].

Shoxlarni qisqartirish asosan, shoxlarning eng yuqorigi (uchki) qismidagi hosil yoki vegetativ shoxchalarni, yarim skeletli yoki skeletli qismlarini olib tashlashdan iboratdir. O'suv nuqtasining yuqori qismini olib tashlash, odatda kuchsiz kesish deb hisoblanadi, shoxning yarmidan ko'prog'ida yaxshi rivojlangan kurtaklar mavjud bo'lgan yoki novdalarning katta qismini kesish bu kalta kesish yoki kuchli qisqartirish turiga kiradi.

Kuchli kesishni mevali daraxtlarda faqat alohida vaziyatlarda qo'llash mumkin: haddan tashqari novdalar o'sib ketganda, novdalarni birga ergashishini tiklash zaruriyatida va boshqa usullar bilan bunga erishishning iloji bo'lmaganda, pishmagan novdalarni kesish orqali yoki daraxtga ma'lum bir muayyan shakl berish uchun jiddiy aniq tartibda shoxlanishini ta'minlash maqsadida, alohida shoxlarni yoki bo'lmasa, butun daraxt novdalarini yoshartirishda, shox-shabba hajmini pasaytirishda va boshqa vaziyatlarda o'tkazish zarurdir. Hosil berib bo'lgan shoxlarning o'rnini bosish uchun uch-to'rt yillik sikl bo'yicha yoshartiruvchi kesish qo'llanilgan variantlarda navlar bo'yicha o'sayotgan shoxlarning umumiy soni 10-14% kamayganligi ko'pgina tajribalarda ham aniqlangan.

Tadqiqot yillarida (2021-2023 yillar) 3 xil olma navlarida kesish usuli va darajasini kuchaytirish va kamaytirish yo'li bilan o'rindosh sifatida hosil beruvchi shoxlarni 3-4 yillik siklik yoshartiruvchi va me'yorlashtiruvchi kesish tadbiri qo'llanilganda, o'suv nuqtalari miqdorining bitta daraxtdagi novdalar soni 9-23 % gacha qisqarishi kuzatildi.

1-jadval natijalariga ko'ra, o'rganilayotgan 3 xil olma navlarida daraxtlarning kesish darajasini kuchaytirish yoki kamaytirishiga qarab, o'sish nuqtalarining soni, ya'ni bir yillik novdalar ning bitta daraxtdagi soni Golden Delishes navida 10 dan to 120 donagacha, Renet Simirenko navida 19 dan to 144 donagacha, Pervenets Samarkanda navida 14 dan to 118 donagacha kamayganligi kuzatildi.

Bir yillik novdalarning o'sish uzunligi ularning o'sish va rivojlanishini baholashda hamda kesish tadbirining o'sish va hosildorlikka ta'sirini aniqlashda sezuvchi indikator bo'lib xizmat qiladi.

To'rt yillik o'tkazilgan tajriba natijalariga ko'ra, bitta novda uzunligi nazorat variantida o'rtacha 48,6 smdan to 32,6 smgacha bo'lib, bir yillik novdalarning o'sishini kamayishi aniqlandi. Hosil berish uchun 4-16 kurtakli bo'g'inlar qoldirib,

**МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ:  
ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА**

**Researchbib Impact factor: 11.79/2023**

**SJIF 2024 = 5.444**

**Том 2, Выпуск 3, 31 Март**

hosil berib bo'lgan shoxlarni uch-to'rt yillik sikl bilan o'rndosh, yoshartiruvchi, me'yorlashtrilgan kesish usullari va darajalari qo'llanilgan variantlarda novdalarning uzunligi 41 dan to 46 smgacha o'sdi.

**1-jadval**

**Kesish usullari va darajalarining olma daraxti novdalari soniga, uzunligiga va umumiy uzunligiga bog'liqligi**

| Hosil berib bo'lgan o'suvchi shoxlarda yoshartiruvchi kesish variantlari | Qoldirilgan shoxlarda hosil kurtaklari soni (dona) | Bir yillik novdalar soni (dona) |      | Bir yillik novdalar uzunligi, sm |      | Bir yillik novdalarning umumiy uzunligi, sm |      |
|--|--|---------------------------------|------|----------------------------------|------|---|------|
|  |  | 2021                            | 2023 | 2021                             | 2023 | 2021  | 2023 |
| <b>"Golden Delishes" olma navi</b>                                       |  |                                 |      |                                  |      |   |      |
| Nazorat  | qisqartirilmaydi                                   | 198                             | 236  | 33                               | 30   | 65.3  | 70.8 |
| 3 yillik sikl  | 4-8  | 162                             | 171  | 37                               | 40   | 59.9  | 68.4 |
|  | 8-12   | 169                             | 180  | 36                               | 39   | 60.8  | 70.2 |
|  | 12-16  | 176                             | 190  | 35                               | 37   | 61.6  | 70.3 |
|  | qisqartirilmaydi                                   | 184                             | 210  | 34                               | 37   | 62.6  | 70.6 |
| 4 yillik sikl  | 4-8  | 168                             | 179  | 36                               | 33   | 60.5  | 69.8 |
|  | 8-12   | 175                             | 184  | 35                               | 39   | 61.2  | 70.0 |
|  | 12-16  | 182                             | 190  | 34                               | 38   | 61.3  | 70.3 |
|  | qisqartirilmaydi                                   | 190                             | 213  | 33                               | 37   | 61.1  | 70.1 |
| <b>"Renet Simirenko" olma navi</b>                                       |  |                                 |      |                                  |      |   |      |
| Nazorat  | qisqartirilmaydi                                   | 207                             | 242  | 34                               | 31   | 70,3  | 75,0 |
| 3 yillik sikl  | 4-8  | 170                             | 181  | 38                               | 40   | 64,6  | 72,9 |
|  | 8-12   | 178                             | 190  | 37                               | 39   | 65,8  | 79,1 |
|  | 12-16  | 184                             | 197  | 36                               | 38   | 66,2  | 74,9 |
|  | qisqartirilmaydi                                   | 195                             | 227  | 35                               | 33   | 68,2  | 75,0 |
| 4 yillik sikl  | 4-8  | 176                             | 189  | 37                               | 39   | 65,1  | 73,3 |
|  | 8-12   | 184                             | 193  | 36                               | 38   | 66,2  | 73,5 |
|  | 12-16  | 193                             | 201  | 35                               | 37   | 67,5  | 74,0 |
|  | qisqartirilmaydi                                   | 194                             | 208  | 34                               | 36   | 67,7  | 74,9 |
| <b>"Pervents Samarkanda" olma navi</b>                                   |  |                                 |      |                                  |      |   |      |



# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 3, 31 Март

|                    |                  |     |     |     |     |      |      |
|--------------------|------------------|-----|-----|-----|-----|------|------|
| Nazorat            | qisqartirilmaydi | 196 | 231 | 33  | 29  | 64,7 | 67,0 |
| 3 yillik sikl      | 4-8              | 158 | 169 | 36  | 38  | 64,7 | 64,2 |
|                    | 8-12             | 163 | 175 | 35  | 37  | 56,9 | 64,8 |
|                    | 12-16            | 169 | 182 | 34  | 36  | 57,1 | 65,5 |
|                    | qisqartirilmaydi | 178 | 190 | 33  | 35  | 57,5 | 66,5 |
| 4 yillik sikl      | 4-8              | 165 | 177 | 35  | 37  | 57,9 | 65,5 |
|                    | 8-12             | 171 | 183 | 34  | 36  | 58,1 | 65,9 |
|                    | 12-16            | 178 | 190 | 33  | 35  | 58,7 | 66,5 |
|                    | qisqartirilmaydi | 181 | 191 | 33  | 35  | 58,7 | 66,8 |
| Nsr <sub>095</sub> |                  | 2,7 | 3,9 | 4,0 | 2,6 | 3,2  | 2,3  |
| P%                 |                  | 4,0 | 2,5 | 3,1 | 4,4 | 3,0  | 4,0  |

Sinalayotgan olma navlari ichida novdalar soni kamayishining ilgarilab ketishi bilan ular uzunligining ko'payishiga bog'liq holda hosil berib bo'lgan novdalar bo'yicha yoshartiruvchi kesish usuli qo'llagan variantlarda bitta daraxt shoxlarining umumiy uzunligi 18-20% nazorat variantiga nisbatan kam bo'ldi. Lekin bir yillik novdalarning absolyut o'sishi bo'yicha Pervenex Samarkanda navida 112,2m, Golden Delishes navida 95,6m va Renet Simirenko navida esa 98,6m ni tashkil etib, daraxt shoxlarining umumiy uzunligi yuqori hosil olish uchun to'liq, yetarli darajadadir.

Shunday qilib, hosil berish uchun qoldirilgan 3-4 yillik, siklik o'rindosh va yoshartiruvchi hamda me'yorlashtruvchi kesish usuli va darajalari qo'llanilgan variantlarda bir yillik novdalar o'sishining biometrik ko'rsatkichlari yaxshi bo'lib, yuqori va sifatli hosil olish uchun yetarlidir.

2021-2023 yillar davomida 3-4 yilda hosil berib bo'lgan shoxlarni yoshartirish maqsadida olma daraxtining bir yillik novdalar soni Golden Delishes navida 9-28% ga, Renet Simirenkoda 9-21% va Pervenex Samarkanda navida 10-27% gacha kamaygani kuzatildi.

Olma daraxtining asosiy ko'rsatkichik bu bir yillik novdalarni o'sish uzunligi, bu ko'rsatkich kesish tadbiri o'tkazilgan variantlarda nazoratga nisbatan Golden Delishes navida 13-33%, Renet Simirenkoda 16-24% va Pervenex Samarkanda navida esa 20-31% gacha oshganligi qayd etildi.

Tajriba natijalari shundan dalolat beradiki, o'rganilgan kesish usuli va darajalari qo'llanilgan variantlarda olma daraxtining 3-4 yillik sikl bo'yicha hosilli shoxlarni 8-12 va 12-16 kurtak qoldirib kesilgan variantlar eng yaxshi natijalar

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 3, 31 Март

berganligini ko'rish mumkin. Qoldirilgan shoxlarda biologik va fiziologik jarayonlarning yaxshilanishiga imkoniyat yaratilib, hosildorlikning oshishiga va meva sifatining yaxshilanishiga olib keldi.

Shuningdek, tajribada o'rganilgan 3 xil olma navlarida 3-4 yillik bir marta o'rindosh sifatida hosil beruvchi hosil shoxlarini yoshartirish orqali olma daraxtining optimal o'sishi va rivojlanishiga sharoit yaratilishi va daraxt doimiy ravishda hosil beruvchi shoxlarga ega bo'lishi, hamda yuqori va sifatli hosil berishi aniqlandi.

## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Aripov A, Aripov A, Urug'li intensiv meva bog'lari - T., "Sharq" 2013, 224 bet.
2. Artikova X.T, Yunusov R, Salimova X.X, Klimaticheskoye usloviya I rostitelnost subtropicheskoy tyoploy I jarkoy pusini-Problemi rekultivatsii otxodov opita promishlennost I selskoxozaystva-215 212-215 betlar.
3. Artikova X.T, Yunusov R, Ganiyeva F.A, "Intensiv olmozorlar hosildorligini va sifat ko'rsatkichlarini zamonaviy resurs tejankor innivatsion texnologiyalar bilan bog'liqligi" Namangan 2023 549-550 betlar.
4. Yunusov R, Ganiyeva F.A, "Buxoro viloyati sharoitida intensiv olmozorlarda o'sish va hosildorlikning nav payvandtag kombinatsiyalari hamda ko'chat qalinligiga bog'liqligi" "Durdon", Buxoro 2021, 102-bet.
5. Yunusov R, Ganiyeva F.A, To'rayeva A.A, Rostenii plodoshenie persika v orashalmax sadax v zavisimosti konstruksii kroni.J., "Stolisa nauka" M-2021, <http://www.scientific-capital.ru>
6. Yunusov R, Ganiyeva F.A, "Kesish usuli va darajalarining olma daraxti barg sathiga ta'siri. Xorazm Ma'mun Akademiyasi axborotnomasi-4/2021. <http://journal.buxdu.uz>